XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QAROR

2021 - yil 23 - dekabr VI-47-56-12-180-K/21 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahridagi 2 ta nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

Urganch shahar hokimligi huzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2021- yil 16- martdagi 75-bayoniga asosan Urganch shahrida mavjud, biroq Davlat reestr bazasida mavjud bo‘lmagan ikkita qabriston nomlarini, xususan, “Yuqoribog‘” mahallasining Pahlavon Mahmud ko‘chasida joylashgan “Oxunbobo” hamda “Mash’al” mahallasining Xiva ko‘chasida joylashgan “Yevropa irqiga mansub fuqarolar qabristoni” nomlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspertizasidan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori viloyat komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qilingan. Bu bo‘yicha Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi raisi, Xorazm viloyati hokimi F.Ermanovning O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi raisi F.K.Umarovga 2021- yil 17- aprelda 4-1837-sonli yo‘llangan xatiga ekspertiza xulosasi olingan.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va 2020 yil 24 iyuldagi Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasiga muvofiq:

- “Yuqoribog‘” mahallasining Pahlavon Mahmud ko‘chasida joylashgan qabriston “Oxunbobo” qabristoni deb nomlansin.

3. “Mash’al” mahallasining Xiva ko‘chasida joylashgan qabriston “Boshqa irqlilar” qabristoni deb nomlansin.

Fuqarolar yig‘ini raislari:

- bir hafta muddatda o‘zlarining hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqqan holda, tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;

- 10 kun muddatda ushbu qarordan nusxalarni shahar IIO FMB, shahar statistika bo‘limiga va boshqa mutasaddilarga yetkazilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari N.Matyaqubov hamda Xalq deputatlari shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish hamda ekologiya bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **O.Xolboyev**